

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”
Международная научно-практическая конференция**

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”
International Scientific and Practical Conference**

II

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

- | | |
|--------------------------|--|
| K.A.Samiyev | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor |
| D.Sh.Yavmutov | – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d. professor |
| O'.U. Rashidov | – Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor |
| A.T.Jurayev | – Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent |
| R.G'. Jumayev | – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor |
| O.S.Qahhorov | – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor |
| G.T. Zaripov | – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor |
| N.I. Gaybullayeva | – BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor |
| N.Z. Sayfullayeva | – Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent |
| M.Sh. Shirinova | – Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent |
| A.A. Amonov | – Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent |
| Z.S. Nurov | – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent |
| B.I. Adizov | – Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent |
| M.Z. Husenov | – Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent |
| D.Z. Rajabov | – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor, |
| A.H. Hamrayev | – BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori |
| O.O. Jalolov | – Matbuot kotibi |

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

- | | |
|--------------------------|--|
| N.Z. Sayfullayeva | – Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent |
| M.Sh. Shirinova | – Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent |
| | BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya yo'nalishlari) |

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

P.Ў. Хўжаниязов	Хоразм вилояти шароитида лазерли ер текислагичларда текисланган майдонларда шўр ювиш технологиясининг самарадорлиги	199
X.A. Idrisov	Soyaning yangi navlarini yaratish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili	204
5-SHO'BA. FILOLOGIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI, GUMANITAR VA IJTIMOY-SIYOSIY FANLARNI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR		
D.S. O'rayeva, D.Z. Rajabov	Buxoro folklorshunosligi: kecha va bugun	207
B.M. Jo'rayeva, A.A. Kilichev	Hozirgi o'zbek va rus tillarida maqollar qo'llanilishi va maqomi	210
H.O. Safarova	XX asr boshlari Buxoro adabiy harakatchiligida nasrning shakllanishi	212
Q.R. To'xsanov	Mumtoz adabiyotda xalq hikoyatlarining badiiy talqini: rumiy, attor va mashrab misolida	214
D.X. Quvvatova	Shodmon Sulaymon ijodida vatan madhi	218
Б.С. Жамилова	Бухоро биздандир, биз Бухородан!	221
D.N. Yuldasheva	Sukut – nolisoniy birlikning kognitiv xususiyatlari	225
N.Z. Bekova	"Ayn ul-hayot" qasidasida me'roj kechasi tasviri	228
Z.Q. Amonova	Mustaqillik bergan imkoniyatlar yoxud Navoiy asarlarini manbalar asosida o'rganish	230
Ш.Н. Ахмедова, Қ.Қахрамон	Адабий танқид методологияси ҳақида баъзи мулоҳазалар	232
A.R. Axmedov	O'zbek tili unlilar tizimida "o"lanish	236
B.E. Kilichev	Filologiyaning zamonaviy muammolari: toponimik katalog va atlas yaratish	237
B.E. Kilichev, M.Sh. Isomiddinova	G'ijduvon tumanining tarixiy toponimlari	239
G.I. Toirova	"Ufq" romanidagi psixolingvistik tafovutlar	241
Г.А. Астанов	"Минг бир кеча" асари: жаҳон адабиёти ва маданиятидаги ўрни	243
M.A. Xudoyqulova	O'zbek tanqidchiligida adabiy bahslarning kompozitsion qurilishi	245
M.Sh. Shirinova	Issues of speech culture in broadcast media	247
N.S. Qodirova	Mustaqillik davri tanqidchiligida uslub yangilanishi (Qodiriyshunoslik misolida)	249
D.R. Sobirova	The anthropocentric paradigm in linguistics and the role of cognitive linguistics within it	251
M.Y. Xojiyeva, Sh.E. Amonova	Tilshunoslikda antroponimik terminlar	253
Ғ.Н. Зикриллаев, Я.Б. Рўзиев	Диалектик материализм ва тилшунослик методологияси	254
M.M. Rakhmatova, J.A. Rakhmonova	Implicature analysis in recent Donald Trump conversations	261
G.Y. Samandarova	O'zbek tilida son komponentli maqollarning tarixiy ildizlari va shakllanish bosqichlari	263
D.Y. Yusupova	So'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi	266
S. Mardonova	O'zbek tili elektron lug'atlaridan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati	270
N.A. Nazarova	O'zbek antroponimikasiga lingvistik yondashuv	272
R.O. Bobokalonov	Onomastics in French and Uzbek medical language	273
N.K. Abbasova, M.Abdualiyeva	National imagery in English proverbs and its reflection in Shakespearean tragedies	278
Sh.D. Abdullayev, O.I. Abdullayev	O'zbek va Qoraqalpoq tillarida yangi ijtimoiy-siyosiy leksikaning lingvomadaniy tahlili	282
M.Sh. Abdurahimova	Nabi Jaloliddin ijodida urush mavzusi	286
O.I. Adizova	Bolalar o'yinlari orqali adabiyotni o'qitishda lingvomadaniy yondashuvni tatbiq etish	288
R.Sh. Akhmedov	The phenomenon of ideological threats in modern society reflected in asimov's science fiction	291
J.A. Akhrorova	Metonymy as a means of forming new meanings of a word	295
I.I. Akramov	Bilingualism in the Bukhara region and its effects on the language system	296
H.E. Allamuratov	О заимствованной юридической лексике в каракалпакском языке	298

6. Yuldasheva D.N. Silence-is a nonverbal unit of speech communication// American Journal of Research", 2020, 11-12 issue of the Journal.-P. 87-95.
7. Юлдашева Д.Н. Сукут-нуткий алоқа компоненти// НамДУ илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ, 2021. № 7. – 407-414-б.
8. Yuldasheva D.N. Basic non-verbal components of speech// Current research journal of philological sciences (2767-3758) 3 (01), 17-24.
9. Yuldasheva D.N., Chullieva G. T. The role of nonverbal means in speech meaning//International Engineering Journal For Research & Development, Vol.6, Issue 2 published May 16, 2021.-Pag.1956-1961.
10. Yuldasheva D.N. Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida): Filol.fan.doktori (DSc) diss. avtoref.-Buxoro, 2024. – 72 b.
11. Юлдашева Д.Н. Сукутда ички нуткнинг воқеалари//“Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti” jurnali, 2022-yil. – 4-son.– 62-67-b.
12. Юлдашева Д.Н. Тиббий эвфемик маънонинг сукут орқали ифодаланиши// Хоразм Ма’мун Akademiyasi Axborotnomasi. –12/4-2022. –220-224-b.
13. Yuldasheva D.N., Yusupova A.Sh., Cho’liyyeva G.T. О невербальных средствах речи// BuxDU Ilmiy axboroti, 2023.-4-son.-108-115-b.

“AYN UL - HAYOT” QASIDASIDA ME’ROJ KECHASI TASVIRI

Bekova Nazora Jo’rayevna

*Buxoro davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi professori, f.f.d.*

Ibroimova Mahliyo Najmiddinova

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning fors tilida yozilgan “Sittai zaruriya” qasidalar turkumining ikkinchi qasidasi hisoblangan “Ayn ul- hayot” qasidasi tahlil qilinadi. Ya’ni qasidada bayon etilgan Payg’ambarimizning Buroq otlarida samoga ko’tarilishlari, Me’roj kechasi Olloh huzuriga chiqishlari hamda sayyora-yu yulduzlar tasvirining Qur’on oyatlari bilan bog’liqlik holatlari o’rganildi. Ba’zi baytlar tahlilga tortildi.

Kalit so’zlar: “Devoni Foni”, “Sittai zaruriya”, qasida, hamd, na’t, Me’roj, hadis, oyat.

Kirish. Alisher Navoiyning adabiyotimiz tarixidagi eng ulkan xizmatlaridan biri, shubhasiz, uning zullisonaynligidir. Buning eng ajoyib samarasi- shoir mahoratining o’lmas namunasi “Devoni Foni” dir. U fors tilida ham she’riyatning juda ko’p turlarida qalami qudratini sinab ko’rdi va bu tilda yaratgan she’rlarining katta qismini to’plab “Devoni Foni” kitobiga kiritdi. Devon Navoiy-Foniyning butun umri davomida fors-tojik tilida yaratgan deyarli barcha she’rlarining kulliyotidir. [2] Fors-tojik tilida yozgan asarlari orasida qasidalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “Sittai zaruriya” qasidasi shoirning yuksak ijod namunalaridan biridir. Bu qasida O’rta Osiyo, arab va eron xalqlari she’riyatida katta o’rin tutgan. Qasida janri lirikaning rivojida muhim rol o’ynagan. Qasidago’ylik XIV-XV asrlarga kelib o’zbek shoirlari orasida keng tarqalgan edi.

Hamd, na’t, sano, meroj, munajat kabi mavzular Navoiyning eng sevimli mavzulari edi. Ammo mustaqillikkacha bo’lgan davr mobaynida bu kabi mavzular o’rganilmadi. Bundan tashqari, Navoiy asarlaridagi hamd, ilohiy tavhid bilan bog’liq o’rinlar qirqib nashr qilindi. Tadqiqotchilar tomonidan ham deyarli tadqiq etilmadi. Shunday bo’lishiga qaramay, navoiyshunos olim Maqsud Shayxzoda Navoiyning hamd g’azallarini mafkura tazyiqlaridan saqlab qolish maqsadida shoirning hamd g’azallariga “uning lirikasida o’tkinchi va tobe bir kayfiyat” sifatida e’tirof etdi. Mustaqillikdan keyin esa shoirning ko’plab asarlari asl mohiyatiga ko’ra o’rganila boshlandi.

Ma’lumki, Navoiy ijodida Payg’ambar (SAV)ga bag’ishlangan na’tlar ko’p. Har bir devonda avvalo Olloh hamdi keyin esa Payg’ambari Akramga atalgan na’t g’azal keltiriladi. Ayrim devonlarning o’rtalarida ham na’t g’azallarni uchratishimiz mumkin. Dostonlar ham avval hamd bilan boshlanadi va undan keyin Payg’ambar na’ti keladi. “Sittai zaruriya” yaxlit bir asar deb qaralgani uchun ham birinchi qasida “Ruh-ul quds” tavhidi Bori taoloni talqin etsa, ikkinchi qasida Payg’ambar Me’roj tasviriga bag’ishlangan.

Adabiyotlar tahlili. Navoiyning “Sittai zaruriya” qasidalar turkumining ikkinchi qasidasi “Ayn ul hayot” (Hayot chashmasi) qasidasidir. Me’roj Navoiyning sevgan mavzusidir. Aynan shu qasidada biz Me’roj kechasining go’zal tasvirini ko’rishimiz mumkin. Nima sababdan Navoiy Me’roj kechasi tasvirini tanlagan?

Chunki Navoiy ham, boshqa so'fiy yoki mutasavvif shoirlar ham Payg'ambar Me'rojida tasavvuf g'oyalariga yaqin narsani va so'fiylarning ruh uruji (ko'tarilishi), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo'lish g'oyasining isbotini ko'radilar Shu bois Me'roj kechasi Rasuli akramning Koinot bo'ylab sayri, Buroq otida Jabroil(AS) jilovdorligida yetti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Olloh bilan suhbatlashishi katta shavq-u zavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlanadi. Bu tabiiy, chunki ushbu mavzu o'z xususiyati va mohiyati bilan shoironadir. Shu bois u buyuk shoirlar ilhomini qanotlantirgan va e'tiborlisi shuki, Navoiy dostonlari, xoh g'azal, xoh qasidalarida bo'lsin, har g'oya ushbu mavzuni yangi, toza tasvirlar bilan yoritadi, aynan takrorlamay, yangi-yangi usullar qo'llaydi.[6]

"Ayn ul hayot" da bayon etilgan Rasuli Akram na'ti va Me'roj kechasi tasviri ko'pgina navoiyshunos tadqiqotchilarimiz tomonidan o'rganilgan. Jumladan Najmiddin Komilovning "Hizr chashmasi" va "Faqr nuri porlagan qalb" ("Sittayi zaruriya" tarkibidagi qasidalar, ularning badiiyati, tatabbuchiilik an'anasi xususida qiziqarli fikrlarni o'qish mumkin), Rahim Vohidovning "Alisher Navoiy va ilohiyot" kitobi (shoirning ilohiyotga doir munosabati va asarlari haqida yangicha talqindagi birinchi yaxlit risola), R.Vohidov va M.Mahmudovlarning "Ma'naviyat - komillik saodati" risolasi ("Sittayi zaruriya", "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining g'oya va mavzular olami xususida jiddiy mulohazalar bildirildi), R.Vohidovning "Sittayi zaruriyada tatabbu" (mazkur turkumning g'oyaviy ildizlari tatabbuchiilik an'anasi, qasidalarining yozilish tarixi haqida keng ma'lumot beriladi) maqolasi, adabiyotshunos olimi N.Bekovanning "Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul- quds" qasidasining badiiyati "nomli nomzodlik ishida ham mazkur mavzuga doir asosli fikrlar bildirilgan.[2] Bundan tashqari, Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy" asari va Muhammad Taqiy Usmoniyning "Qur'oni Karim oson tarjimai" kitoblaridagi Payg'ambarimiz hayotlari va Me'roj kechasi tasviri bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Natijalar va muhokama. "Ayn ul-hayot" qasidasi 106 baytdan iborat, shundan 40 bayti Payg'ambarimizning Arsh tomonga ko'tarilishlariga bag'ishlangan. 66 bayti esa Me'roj kechasining tasviri, osmon jismlari, yer ashyolari bir-bir tasvirlanadi. Zero, bu alohida Tun, Parvardigor o'z Rasuli, habibi bilan diydor ko'rishgan fayzli, jozibali Tun edi. Me'roj kechasi qanday kecha? Bu shunday kecha ediki, Payg'ambarimizning bir kechada Masjidi Haromdin chiqib, Masjidi Aqsoga kelganlari tushuniladi. Bu voqea Qur'on oyatlari bilan ham sobitdir. Bu kechada Jabroil(alayhissalom) bir nechta farishtalar bilan kelib, Payg'ambarimizning yuraklarini oladilar va oltin jomdagi imon-hikmat suvi bilan chayqadilar va ilm-hikmat, imon to'ldirib o'z o'rniga qo'yadilar. Keyin jannatdan keltirilgan Buroq otga mindiradilar va xiyol otmay Masjidi Aqsoga keladilar. Qasidada ushbu voqea quyidagicha bayon etilgan.

Dar shabi me'roj poyandozi raxshash ahli Arsh,
Az duri axtar mukallal sabz debo afganand.
Chun falakpaymo Buroq andar riqobi o' kashand,
G'oshiya az Mehr basta, zin zi Javzo afganand. [7]

Ya'ni, Arsh ahli Me'roj kechasi tulporining poyiga yulduz durlari bilan bezangan yashil harir matoli poyandoz to'shaydilar. Falaklardan oshib o'tuvchi Buroqiga uzangi bog'laganlarida, egar yopinchi'ini quyoshdan-u, egarini Javzo burjidan olganlar.

"Ayn ul hayot" qasidasi mustaqil ravishda yozilgan qasida hisoblanadi. Qasidada afganand (tushirishar) so'zi radif vazifasini bajargan. Me'roj so'zining luga'aviy ma'nosi esa - ko'tarilmoq, ya'ni Olloh huzuriga yuksalmoqdir. Bir yuz olti baytda tushirmoq so'zini o'rnida va har xil ma'nolarda qo'llash orqali Foni o'zining zabardast shoir ekanligini yana bir bor isbotlagan.

Hojiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,
Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand.

(Mazmuni: Tun hojib-pardadorlari qora chodirlarini tushirgan paytda oy yuzli sanamlar xayliga jilva-nur tushiradilar.) Shoir aytmoqchiki, qo'riqchi farishtalar Payg'ambarimiz osmonga ko'tarilishlariga tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Osmonga qora chodir tushirdilar. Sayyoralarni ham bezatdilar. Baytda ko'rinadiki osmon so'zi bu yerda faqat samo ma'nosini emas, balki muqaddas joy, farishtalar, ruhlar makoni, tiriklik sarchashmasi kabi bir qancha ma'nolarda ham qo'llangan. Baytlar shu tarzda tashbehlar, istiora, tashxis, iyhom san'atlari bilan davom etadi.

Bundan tashqari, qasidada oyatlar bilan bog'liq o'rinlar ham anchagina. Quyida shular haqida to'xtalmoqchimiz.

Nasru fathi ezidy boshad qarini chayshi tu,
Bar safash gar chashm chun satri "Izojo" afganand.

Mazmuni: Lashkaring safidagi "Izo joa" satriga ko'zlari tushganda, ularga ilohiy fath-u nusratning yaqinligini ko'radilar. Bu yerdagi "Izo joa" so'zi Qur'oni karimdagi "Nasr" surasining 1-oyatiga ishora qilmoqda. Ko'plab mufasssirlar fikriga ko'ra, ushbu sura Makka fathidan biroz avval nozil bo'lgan.

Birinchidan, ushbu surada Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga Makkaning fath etilishi hamda arablarning Islom diniga to'p-to'p bo'lib kirishi xushxabari berilmoqda. Shunday bo'ldi ham. Ikkinchidan, Islom dinini yoyish bilan Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning bu dunyoga tashrif buyurishlarining maqsadi hosil bo'ldi. Shuning uchun ham u zot bu dunyodan ruxsat bo'lishiga tayyorgarlik uchun hamd, tasbeh va istig'farga hukm qilinmoqda. [5]

Ra'yati chayshi tu chun do'zand hayyotoni sun,
Shuqqaashro zinati "Inno fatanho" afganand.

Mazmuni: Quddrat tikuvchilari qo'shining bayrog'ini tiksalar, uchiga bog'lanadigan parchasiga "Inno fatanho" (albatta, biz fath-u zafar berdik...) oyatini yozib, ziynat beradilar. Ushbu baytdagi "Inno fatanho" so'zi "Fath" surasining birinchi oyatiga ishora qilyapti. Fath surasining birinchi oyati quyidagicha: Ey Muhammad! Biz sizga aniq fath (g'alaba) baxsh etdik. Sahih rivoyatlarga ko'ra bu oyat "Hudaybiya sulhi" paytida nozil bo'lgan. Sulh bu buyuk g'alabaning debochasi bo'lib, oxir-oqibat Makkai mukarramani fath qilish bilan yakunlanadi. [5]

Az ahodisat sahehiro ravot andar raqam,
Boru bob az haddi Batho to Buxoro afganand.

Mazmuni: Roviylar sahih hadislariningni Makka sarhadlaridan Buxoroga qadar qayta-qayta, bobma-bob yozib chiqadilar. Ushbu baytda Imom al-Buxoriy va u kishining shih asarlari "Jome us-sahih" ga ishora bor. Hazrat Navoiy bu bayt orqali Buxoro Makka kabi sharif bo'ldi, Payg'ambar hadislarini makoniga aylandi demoqchi. "Tarixi Muhammadiy" asarida ham Imom Buxoriy hadislarini bilan bog'liq ma'lumotlar bor. Chunonchi, Alixonto'ra Sog'uniyning aytishicha, Me'roj kechasi voqealari haqida juda ko'p kitoblarda har xil ma'lumotlar uchraydi. Bu degani barcha yozilgan ma'lumotlar to'g'ri degani emas. Ayrımlari haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham Imom al-Buxoriyning "Jome us-sahih" asarini Qur'ndan keyingi ishonchli manba hisoblab, Me'roj voqealarini shu asardan tarjima qilib yozdilar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Ayn ul hayot" qasidasida Payg'ambarimiz sifatлари madh etiladi, osmonning tungi holati tasvirlanadi, undan keyin esa yerdagi hayot haqida gapiriladi, ya'ni ba'zi iymonsiz insonlarning sifatleri va Ollohga haqiqiy oshiqlar haqida juda chiroyli, betakror o'xshatishlar Navoiyning qalami o'tkir ekanligini isbotlaydi. Bundan tashqari, qasida shu qadar Qur'on oyatlari, Imom Buxoriy hadislarini bilan uyg'un holatda yozilganki, Foniyning haqiqiy oshiq, juda kuchli e'tiqod egasi ekanligini bilib olishimiz mumkin. Muhammad (SAV) ning Olloh huzuriga chiqishi va o'sha kechadagi yer-u osmon tasviri "Ayn ul hayot" qasidasida g'oyat go'zal tashbehlar, tamsillar bilan bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonto'ra Sog'uniy. Tarixi Muhammadiy. - Toshkent: Munir, 2023, 92-b.
2. Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва "Рух ул- кудс" қасидасининг бадийяти. Филология фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2003. –Б.158.
3. Комилов Н.Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005.
4. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб.-Тошкент: Маънавият, 2001
5. Muhammad Taqiy Usmoniy. Qur'oni Karim oson tarjimasi. - Toshkent: Munir, 2023, 564, 946-b.
6. Muxtorova D. "Ayn ul- hayot" - na't qasida. INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE British International Science Conference
7. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. - Тошкент: Фан, 2003, 350 б.
8. Сирожиддинов Ш. Навоий ғазалларида Оллох мадҳи|| Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2001, 1-сон, 51-55-бетлар. Салоҳий Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тадрижий тақомили || филол. Фан. Док.дис-Тошкент, 2001, 119-124-бетлар.
9. Воҳидов Р, Неъматов Ш, Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат.- Тошкент: Ёзувчи, 2001. Воҳидов Р. «Ситтаи зарурия»да татаббуъ || Бухоро университети илмий ахборотлари. 2001, 1-сон, 10-18-бетлар.

MUSTAQILLIK BERGAN IMKONIYATLAR YOXUD NAVOIY ASARLARINI MANBALAR ASOSIDA O'RGANISH

Amonova Zilola Qodirovna
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi uchinchi doston "Layli va Majnun" tarkibidagi munojot bobi g'oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Tahlilda asosan, baytlarning manbalariga